



**TA'LIMY TASHKILOTLARDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ
BOLALARNI TA'LIM Olishini QO'LLAB-QUVVATLASH
TEXNOLOGIYALARI**

Norqulova Sevinch

Xo'shboqova Sevara

Ravshanova O'g'iloy

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim tizimidagi o'rni, ularni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va amaliyotdagi yondashuvlar tahlil qilinadi. Inkluziv ta'limni rivojlantirish, maxsus pedagogika vositalari, raqamli platformalar va moslashtirilgan o'quv dasturlari orqali bunday bolalarning ta'lim olishini samarali tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli texnologik yechimlar va pedagogik strategiyalarning integratsiyasi orqali ta'lim muassasalarida teng imkoniyatlarni ta'minlash masalasi muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, Ta'lim texnologiyalari, moslashtirilgan o'quv dasturi, Interaktiv vositalar.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda ta'limning inklyuzivligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta'lim tizimiga integratsiya qilish nafaqat ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga, balki jamiyatda teng huquqli fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun asosiy muammolardan biri — har bir bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash va unga mos yondashuvni ishlab chiqishdir.



Shuningdek, maxsus jihozlarning yetishmasligi, pedagoglarning tayyorgarlik darajasi va o'quv resurslarining cheklanganligi muhim masalalardandir.

Bolalar ongida irqchilik, nogironlik hamda imkoniyatlar kengligi xususida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar haqoratlar va masxaralanishlarga duchor bo'lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulq-atvorni ayrim o'qituvchilarning e'tiborsiz qoldirayotganliklaridir. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun ham barcha maktablarda hamma bolalar uchun tenghuquqli, sevimli, do'stona iliq munosabatdagi muxitini yaratish lozim. Maktabda irqchilikni, nogironlik ustidan kulishni qoralanishi va turli kurinishlardagi tassavvurlarga qarshi chiqib bolalar o'rtasidagi tenghukuqlilik tushunchasini shakllantirish kerak. Shuning uchun ham quyida bolalar o'rtasida tenghuquqlikni tushunchalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berildi:

- Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o'z hayotlari va his tuyg'ularini muhokama qila oladigan o'zaro qo'llab-quvvatlovchi va hamjihatlikdagi ijobiy muxitni yaratishga yordam berishlari lozim;
- O'quvchilar ongiga nogironlik-alohidalik emaye, balki kamchilikning mavjudligi natijasida imkoniyatlar chegralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qo'rqish, jirkanish hislarini yo'qotishga erishish talab etiladi.

Pedagoglar dasrlarda stereotiplarni qo'zg'ashdan qochishlari va taayesublarini qo'llashdan keyin xam bolalar oldida sharhlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo'yish, masxara qilish salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo'l qo'ymasliklari talab etiladi.

Zarur bulgan xolatlarda imkoniyati cheklangan bolalarga ayrim o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muxokama qilish o'rinli hisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun oxirigacha kurashish lozim.



Har bir muhokamada bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga solishtirib, qayd etib, ta'kidlab borish muximdir. O'quvchilar bilan turli xildagi anketalar va psixologik testlar o'tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishga jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao. O'quvchilar ishlarini va ularning yutuqlarini barcha soxalarida maktab va maktabdan tashqari ishlarda namoyish qilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini ham qo'llash juda katta samara beradi.

Kitob, plakatlar va dasturlarni qo'llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta'limga mos kelishi kerak. Maktablar oshkoralik tamoyiliga amal qilinishi, o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar o'zaro yaqindan muloqat qila olishi muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirib o'tilganlarni tavsilarni maktab hayotiga joriy etish uchun o'qituvchilar o'quvchilar bilan har kuni ularni qiziqtiruvchi, ular uchun ahamiyatli yoki xavotirga soluvchi, tahlikaga tushiruvchi sabablar, mavzular haqida suhbatlashish imkoniyatini topish zarur.

Bu jarayon barcha o'quvchilarning jumladan, imkoniyati cheklangan bolaning ham ichki dunyosini o'rganish, muammolarini anglash imkonini beradi. Agar alohida ehtiyojli o'quvchi o'z ichki kechinmalari haqida gapira olmasa, unda uyalish, hadiksirash hissi kuchli bo'lsa shunday yo'l tutish lozimki, butun sinf uni qo'llab-quvvatlasin. Bunday muhitda har bir bola o'zini xavfsiz sezadi va o'z kechinmalarini boshqalargi qo'rqmay bayon eta oladi. Shuningdek o'qituvchi diskriminasiya ildizlarini tarixiy va zamonaviy holda shunday tushuntirish kerakki, bolalar insonlardagi istalgan farqlarni tushunish va qabul qilish mumkinligini anglab yetsinlar. Ayniqsa ushbu vazifani o'quvchilar ongida kichik yeshidan boshlab shakllantira bilish kerak.

Bunday muammolarni ayrim bolalar bilan tanffusda ochiq jamoat bilan muhokama qilishi yaxshiroq samara beradi. Lekin ayrim holatlarda yakka, holdagi muhokama eng



yaxshi variant bulishi ham mumkin. Barcha sinf va guruxlarda agar kimnidir xafa kilishgan bulsa, (ozgina bulsa xam pedagog darsini tuxtatish va buni muxokama qilishi lozim). Muxokamaning maqsadi ijobiy munosabatni rivojlantirishdir.

Darslarda o'quvchilar guruhini shunday joylashtirish kerakki, bolalarda alohida holda, moslamalardan bir oz foydalanib ishlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Pedagogda ma'lum o'quv rejalarida majburiy bo'lgan topshiriqlarga egiluvchan, moslashuvchan munosabatda bo'lish kerak. Sinfni guruxlarga, juftliklarga bo'lish va individual topshiriqlar topshirishlari kerak. Gurux tarkibini turli o'quvchilardan iborat ekanligiga ishonch hosil qilish (bolalar kizikishlarini xisobga olib) guruxlarda nogiron va sog'lom o'quvqilardan iborat bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi xar bir bolaning bajargan ishini individual baxolashini va sinf yutuqlarini rivojlantirishga chorlashi ham muhim. Yuqoridagilardan tashqari aloxida e'tiborni bolalar oyoqlarini uzoq muddatga chalkashtirib utirmasliklariga qarating, chunki bu noqulay, ularning jismoniy rivojlanishlariga yomon ta'sir etadi va diqqatni pasayishiga olib keladi. Ayrim bolalarga oyoklarini chalkashtirib o'tirish umuman mumkin emas. Masalan, bolalar argriti bo'lgan bolalarga, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning qulay o'tirishlari uchun turli yordamchi vositalardan yostiqlar, stullar va boshkalardan foydalanish kerak.

Aravachaga yuradigan yoki hasa va boshqa moslamalar orqali harakatlanuvchi bolalar uchun sinfdagi harakatlanish joylarini yetarli ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida quyidagilarga e'tibor bering:

- Ko'rish va eshitish qiyinchiliklariga ega bolalar gilam va partalar orasida butun sinf faoliyatida ishtirok eta oladigan tarzda o'tirganlariga ishonch hosil qiling;
- Ta'lim olishda qiyinchilikka uchraydigan bolalar o'yinlarda ishtirok etishlariga imkoniyat yaratilgan va bunda ta'lim olish imkoniyatlarini qo'llay olishlariga ishonch hosil qiling;
- Turli xil tibbiy muammolarga ega bolalarning ayrimlari tez-tez ovqatlanish,



suyuqlik ichish yoki boshqalarga qaraganda hojatga ko'proq borish ehtiyojiga ega bo'ladilar. Bunday bolalar o'zlarini nokulay his etmasliklari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qarating;

- Uzoq muddatli tik tura olmaydigan bolalarni ham e'tibordan chetda qoldirmang;
- Agar bolaga diqqatni jamlash yoki ko'rinmas yashirin (autizim yoki giperfaollik natijasida diqqatning yetishmasligi) natijasida tinch o'tirishga qiynalsa, boshqa o'quvchilar aytilgan vazifalar bilan mashg'ul bo'lsalar ham diqqati tarqoq o'quvchilarning bir nafas dam olishlariga imkon bering.
- Pedagoglar imkoniyati cheklangan biror bir katta yoshdagi shaxsni taklif etish asosida nogironlikning ijtimoiy holatlari xaqida suhbatlashish natijasida o'quvchilarga nogiron insonlar hayoti, ularning yutuq va muammolarini tushuntirib berishlari mumkin. Sinfni nogironlik-imkoniyatlarning chegaralanganligi tushunchalarini tushuntirib, kimlar nogiron xisoblanishini aytib, o'quvchilarga to'g'ri tushuncha bera oling.

Kasal bo'lgan yoki qisqa muddatga biror joyini jarohatlagan inson bilan nogiron inson orasidagi farqni tushuntirib bering. Ko'pgina bolalar kasallik yoki jarohatlanishi tajribasiga egalar. Ular bilan shu haqida va ularning tanalarida yuz bergan o'zgarishlar haqida suhbatlashing. Ulardan bunday vaqtda o'zlarini qanday his qitganliklarini so'rang.

Ta'lim tashkilotlarida differensial yondashuv, ko'makchi o'qituvchilar ishtiroki, kichik guruhlar bilan ishlash kabi metodlar alohida yordamga muhtoj bolalarning darsda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shuningdek, psixologik va emotsional qo'llab-quvvatlash ham bu jarayonning ajralmas qismidir.

XULOSA

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta'lim tizimiga jalb etish va ularning ta'lim olishini samarali tashkil etish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir.



Bunday bolalar o'ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega bo'lganligi sababli, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish nafaqat pedagoglar, balki jamiyatning barcha qatlamlari zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida ularning qiziqishlari, psixologik holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga qarab individual yondashuvni shakllantirish zarur.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot ushbu yo'nalishda muhim rol o'ynamoqda. Maxsus dasturlar, raqamli platformalar, interaktiv vositalar, mobil ilovalar, virtual reallik va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratmoqda. Masalan, o'quv materiallarini audio va video formatlarda yetkazib berish, vizual tasvirlar bilan boyitilgan taqdimotlar, nutq terapiyasi uchun maxsus ilovalar va robototexnika elementlari bunday bolalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ayniqsa, inkluziv ta'lim konsepsiyasi doirasida qo'llanilayotgan "moslashtirilgan o'quv dasturlari" pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, alohida ehtiyojga ega bolalarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bunda differensial yondashuv, kichik guruhlar bilan ishlash, ko'makchi pedagoglar ishtiroki, ota-onalar va psixologlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, har qanday texnologiya faqatgina uni to'g'ri boshqara oladigan, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar qo'lida samara beradi. Shuning uchun, ta'lim tashkilotlari xodimlari uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ular orasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajriba almashish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur. Zero, bu yo'nalishda amalga oshiriladigan har bir islohot nafaqat bitta bolaning, balki jamiyatning kelajagi uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, alohida yordamga muhtoj bolalarni to'laqonli ta'lim jarayoniga jalb etish uchun faqatgina texnologik vositalarning mavjudligi yetarli emas. Eng muhimi — insoniy yondashuv, pedagogik mahorat va doimiy yangilanib boruvchi,



moslashuvchan ta'lim strategiyalaridir. Ana shunday shart-sharoitlar yaratilgan taqdirdagina, har bir bola o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimova, Z. M. (2022). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagog nashriyoti.
2. Allamurotova, M. Sh. (2021). Inkluziv ta'lim asoslari. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. Qodirova, S. K. (2020). "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiylashtirishda ta'lim muassasalarining o'rni." // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, №4.
4. UNESCO (2020). Inclusion and education: All means all. Global Education Monitoring Report.
5. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications.
6. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools. UK: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE).
7. Reiser, R. (2012). "Implementing inclusive education: A Commonwealth guide to implementing Article 24 of the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities." Commonwealth Secretariat.
8. Abdurahmonova, Z. D. (2019). "Maxsus ehtiyojli bolalar uchun raqamli ta'lim resurslari." // Pedagogik izlanishlar, №2.